

# **PEDAGOGIK MAHORAT**

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**6-son (2025-yil, iyun)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2025**

## PEDAGOGIK MAHORAT

### Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2025, № 6

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

#### TAHRIR HAY’ATI:

**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

**Mas’ul kotib:** Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta’limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)*

*Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)*

*Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)*

*Zotova Firuza Raxmatullova, pedagogika fanlari doktori, professor (Volgabo‘yi davlat jismoniy tarbiya, sport va turizm universiteti, Rossiya)*

*Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*

*Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*

*O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)*

*To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor*

*Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor*

*Dilova Nargiza Gaybullayevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Abdullayev Mehridin Junaydulloyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Sattorov Anvar Ergashovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor*

*Nurulloyev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Fayziyeva Umida Asadovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Xalikova Umida Mirovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

MUNDARIJA

|                                  | Familiya I.Sh.                                                           | Mavzu                                                                                                             | Bet |
|----------------------------------|--------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>DOLZARB MAVZU</b>             |                                                                          |                                                                                                                   |     |
|                                  | <b>QARSHIBOYEVA Gulnoza Abduqodirovna</b>                                | Psixologik xizmat va jinsga asoslangan terapiya usullarining o‘smirlar suiqasdiga qarshi samaradorligi            | 8   |
| <b>PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA</b> |                                                                          |                                                                                                                   |     |
|                                  | <b>ABDIEVA Saltanat Patullaevna</b>                                      | Pedagogik sinflarda o‘quv jarayonida o‘quvchilarning kasb kompetentligini takomillashtirish                       | 13  |
|                                  | <b>ABDIRAIMOVA Gulrux Samad qizi</b>                                     | Kognitiv faoliyat tushunchasining mazmun-mohiyati va uning psixologik-pedagogik asoslari                          | 17  |
|                                  | <b>ABDUMURADOVA Feruza Nuriddin qizi</b>                                 | Ota-onalarning hissiy intellekti va bolalar rivojlanishiga ta’siri                                                | 22  |
|                                  | <b>АЛЛАМУРАДОВА Хурлиман Нуриллаевна</b>                                 | Критическое мышление и критическая педагогика: различия, сходства и образовательные последствия                   | 27  |
|                                  | <b>BARATULLAYEVA Dilnoza Xabibullo qizi</b>                              | Ajrashgan ayollarda psixologik ruhiy holat                                                                        | 33  |
|                                  | <b>ERGASHOVA Muxlisa Azizjon qizi</b>                                    | Liderlik tushunchasi va lider shaxsning psixologik talqini                                                        | 37  |
|                                  | <b>ESHMURADOVA Shoxsanam Shuhrat qizi</b>                                | O‘smirlarda ijtimoiy moslashuv buzilishining psixologik xususiyatlari                                             | 41  |
|                                  | <b>ESHNAZAROV Murod Karimovich</b>                                       | Germenevtik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning reflektiv texnologiyasi   | 45  |
|                                  | <b>ESHQUVVATOV Ulug‘bek Abdulla o‘g‘li</b>                               | Talabalarning muhandislik ijodkorligini shakllantirishda tizimli fikrlashga o‘rgatish                             | 52  |
|                                  | <b>RUZIYEV Davron Yuldashevich, MIRSHAYEV Ulug‘bek Muzafarovich</b>      | Talabalarda hissiy intellekt namoyon bo‘lishining psixologik tomonlari                                            | 57  |
|                                  | <b>KORAYEVA Latifa Zarifovna</b>                                         | O‘quvchilarda o‘quv motivatsiyasini shakllantirishning shaxsiy identifikatsiya omillari                           | 61  |
|                                  | <b>NAZAROVA Gulbahor Pirmanovna, KUNTO‘G‘DIYEVA Inobatxon G‘ofurovna</b> | Overview of the history of dok. the difference between it and bloom’s taxonomy                                    | 65  |
|                                  | <b>MAXMUDOVA Zebiniso Maqsudovna</b>                                     | Педагогические возможности развития деонтологической компетентности будущих учителей образования                  | 70  |
|                                  | <b>NUTFULLOYEVA Zarnigor Sa’dullo qizi</b>                               | Kitobxonlik madaniyatini rivojlantish orqali kommunikativ qobiliyatini takomillashtirish                          | 75  |
|                                  | <b>PARDAYEVA Ra’no Eshboyevna</b>                                        | Ta’lim jarayonida loyihaviy yondashuv asosida talabalarda deontologik madaniyatni takomillashtirishning metodlari | 79  |
|                                  | <b>QORYOG‘DIYEV Sherzod Shuxrat o‘g‘li</b>                               | Ota-onalar infantilligini ijtimoiy-psixologik tadqiq etish jabhalari                                              | 84  |
|                                  | <b>QURBONOV J.Sh., NISHONBOYEV M.X.</b>                                  | Taktika fani mashg‘ulotlarida kursantlarning ko‘nikmalarini oshiruvchi interfaol metodlarni qo‘llash              | 92  |
|                                  | <b>RASHIDOVA Madina Raxmatovna</b>                                       | Kreativ fikrlovchi yoshlar salohiyatini oshirishning obyektiv zarurati va subyektiv asoslari                      | 97  |
|                                  | <b>RAYIMOVA Nigina Bobonazarovna</b>                                     | Xorijiy davlatlarda ekologik ta’lim-tarbiyaning o‘rni (Germaniya, Shvetsiya va finlyandiya tajribalari)           | 101 |

## XALQ QO'SHIQLARI VOSITASIDA MUAMMOLI TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

**Ruziyev Davron Yuldashevich,**

*Buxoro davlat universiteti “Musika ijrochiligi  
va madaniyat” kafedrası professori*

**Mirshayev Ulug'bek Muzafarovich,**

*Buxoro davlat universiteti “Musika ijrochiligi  
va madaniyat” kafedrası katta o'qituvchisi*

*Maqolada xalq qo'shiqlari vositasida muammoli ta'limni tashkil etishning psixologik-pedagogik asoslari, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanish, musiqa sohasida bilim oluvchining aqliy faolligini oshirish, musiqiy faoliyatlar bo'yicha mustaqil ravishda ijodiy izlanish, muammoli vaziyatlar, psixologik muhit, psixologik to'siqlarni bartaraf etish, xalq qo'shiqlari nazariyasi va amaliyoti bo'yicha tayyor bilimlarni talaba ongiga yetkazish, xotirada saqlash, mavzu mazmunini so'zlab berish, qo'shiqlarni kuylab berish, kuylarni musiqa asbobida ijro etish, tushunish darajasini ifodalash, ijodiy faoliyatni tashkil etish, ya'ni, o'quvchi-talabalarning musiqa bo'yicha olgan bilimlarini xalq qo'shiqlari misolida amalda tadbiq etishi, nazariy tushuncha va amliy ijro sohasida ma'lum natijalarni qo'lga kiritishga yo'naltirilgan uslubiy tavsiyalar bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** xalq qo'shiqlari, muammoli ta'lim, muammoli vaziyatlar, psixologik muhit, psixologik to'siq, ijodiy faoliyat, nazariy tushuncha, amaliy ijro.

## ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ С ПОМОЩЬЮ НАРОДНЫХ ПЕСЕН

*В статье изложены методические рекомендации, направленные на психолого-педагогические основы организации проблемного обучения посредством народных песен, уместное использование современных педагогических технологий, повышение умственной активности обучающегося в области музыки, самостоятельное творческое исследование музыкальной деятельности, устранение проблемных ситуаций, психологической среды, психологических барьеров, доведение до сознания студента готовых знаний по теории и практике народных песен, сохранение в памяти, пересказ содержания темы, пение песен, исполнение мелодий на музыкальном инструменте, выражение уровня понимания, организация творческой деятельности, то есть применение на практике полученных учащимися знаний по музыке на примере народных песен, достижение определенных результатов в области теоретического понимания и практического исполнения.*

**Ключевые слова:** Народные песни; проблемное обучение; проблемные ситуации; психологическая среда; психологический барьер; творческая деятельность; теоретическое понимание; практическое исполнение.

## PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF ORGANIZING PROBLEM- BASED LEARNING THROUGH FOLK SONGS

*The article describes the psychological and pedagogical foundations of organizing problem-based learning through folk songs, the appropriate use of modern pedagogical technologies, increasing the mental activity of students in the field of music, independent creative research in musical activities, problem situations, psychological environment, overcoming psychological barriers, conveying ready-made knowledge about the theory and practice of folk songs to the student's consciousness, storing them in memory, narrating the content of the topic, singing songs, performing melodies on a musical instrument, expressing the level of understanding, organizing creative activity, that is, students apply their knowledge of music in practice using folk songs as an example, theoretical concepts and methodological recommendations aimed at achieving certain results in the field of practical performance.*

**Keywords:** folk songs, problem-based learning, problem situations, psychological environment, psychological barrier, creative activity, theoretical concept, practical performance.

**Kirish.** So'ngi yillarda mamlakatimizda musiqa fanlarini o'qitish bo'yicha Oliy ta'lim tizimiga ko'plab yangiliklar joriy qilinmoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanib musiqa

ta’limini muammoli tashkil etish shunday yangiliklardan biridir. Musiqa fanlarini o’qitish jarayonida xalq qo’shiqlarining o’ziga xos xususiyatlari bo’yicha muammoli ta’limning maqsadi bilim oluvchilarning xalq qo’shiqlari san’ati sohasidagi mustaqilligi va faolligini oshirish, qo’shiqlarning o’ziga xos xususiyatlari haqidagi tafakkurini rivojlantirish, xalq qo’shiqlari bo’yicha nazariy va amaliy o’zlashtirilgan musiqiy-nazariy bilimlarini amaliyotga tadbiiq etilishini kuchaytirishdan iboratdir. Pedagogik-psixologik adabiyotlarda, jumladan musiqa pedagogikasi va psixologiyasi adabiyotlarida muammoli ta’limning ilmiy-nazariy asoslari haqida fikr yuritilganda, uni ta’lim metodi, prinsipi yoki alohida tizim deb hisoblash holatlari uchraydi. Musiqa fanlarini o’qitish jarayonidagi muammoli ta’limning qanday nomlanishidan qat’iy nazar uning asosiy xususiyati – musiqa sohasida bilim oluvchining aqliy faolligini oshirish, musiqiy faoliyatlar bo’yicha mustaqil ravishda ijodiy izlanish, o’zi uchun yangi musiqiy bilim, ko’nikma va malakalarni kashf etishdan iborat.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida musiqiy ta’lim, jumladan, xalq qo’shiqlari vositasida muammoli ta’lim jarayoni tashkil etilganda qo’shiqlarning o’ziga xos xususiyatlari bo’yicha bilim egallashning bir qancha bir-biriga bog’liq bo’lgan bosqichlari mavjud bo’lib, xalq qo’shiqlari nazariyasi va amaliyoti bo’yicha tayyor bilimlarni talaba ongiga yetkazish, xotirada saqlash, qayta xotiralash, mavzu mazmunini so’zlab berish, qo’shiqlarni kuylab berish, kuylarni musiqa asbobida ijro etish kabi holatlar bo’yicha bilish, tushunish darajasini ifodalaydi. Bu darajalarda bilim oluvchidan xalq qo’shiqlari ijrosiga, ular mazmun-mohiyatini o’rganib olishga ijodiy yondashuv talab etilmaydi. O’zlashtirishning keyingi darajalarida o’quvchi-talabalar musiqa bo’yicha olgan bilimlarini xalq qo’shiqlari misolida amalda tadbiiq etishi, nazariy tushuncha va amaliy ijro sohasida ma’lum natijalarni qo’lga kiritishi, to’ldirishi, boyitishi, o’zgartirishi, o’zining mustaqil tushuncha va amaliy ijrosiga ega bo’lishi talab etiladi. Xalq qo’shiqlari sohasi bo’yicha bu o’zlashtirish darajalari uchun muammoli yondashuv zarur.

**Muhokama va natijalar.** Xalq qo’shiqlari vositasida musiqiy ta’lim jarayonini muammoli tarzda tashkil etish auditoriyaga o’ziga xos psixologik jihatdan yondashuvni talab etadi. Buning uchun vokal, an’anaviy ijro, ansambl fanlaridan ta’lim beruvchi o’qituvchilar va ular berayotgan bilimlarini o’rganib boruvchilar o’rtasida hech qanday psixologik to’siq bo’lmasligi hamda shunga ko’ra psixologik muhit yaratilishi lozim. Psixologik to’siqni bartaraf etish uchun tanishuv treningi o’tkazilishi mumkin. Tanishuv treningida har bir talaba biror xalq qo’shiqlarida o’z ifodasini topgan musiqiy elementlarni aytishi va aytgan musiqa elementlarning ma’nosini tushuntirib berishi, yoki musiqiy elementlar misolida xalq qo’shiqlarining o’ziga xos xususiyatlarini ifoda etishi lozim. Shundan so’ng, bugungi musiqa mashg’ulotining samarali o’tkazish qoidasi, tartibi qabul qilinadi. Ushbu jarayon auditoriyadagi barcha tahsil oluvchilar bilan birgalikda amalga oshirilishini unutmash kerak. O’qituvchi bugungi musiqa mashg’ulotida xalq qo’shiqlari ijrosining samaradorligini ta’minlash uchun talabalar qanday qoidalarga rioya qilishi lozimligini auditoriyadagilardan so’raydi. Olingan javoblar umumlashtiriladi va bugungi musiqa mashg’ulotida o’rganiladigan xalq qo’shiqlarining samaradorligini ta’minlash uchun quyidag qoidalarga amal qilinishi eslatiladi: birovlar so’zini bo’lmaslik; fikrini chalg’itmaslik; javob berayotgan, fikr bildirayotganlar, qo’shiqni kuylab berayotgan talaba ijrosini diqqat bilan eshitib turish; bir-birining ijrosini tinglay olish madaniyatiga rioya qilish; navbat bilan gapirish, fikr bildirish; sabr-toqatli bo’lish; o’zaro hurmat qilish.

Mashg’ulotni muammoli tarzda tashkil etish uchun birinchi galda talaba o’rganilayotgan xalq qo’shig’iga oid musiqiy tushunchalar, bilimlar, malaka va mahoratlar bo’yicha bahs-munozara yuritishga, fikrlarni erkin, ravon, tushunarli bayon etishga, ijroning ifodali, yoqimli amalga oshirishi, tanqidiy munosabat, fikr bildirishga tayyor bo’lishi lozim. Buning uchun musiqa mashg’ulotida o’rganilishi kutilayotgan xalq qo’shig’i materiallari bo’yicha qo’yiladigan muammolarga tegishli bo’lgan tushunchalar yuzaga chiqariladi. So’ngra har bir muammoga aniqlik kiritilib, ma’lum xulosalar chiqariladi. Bu jarayon fikr-mulohazalarda, musiqa asarlarini ijro etib berish orqali ifodalanadi.

Mavzu mazmun-mohiyati bo’yicha belgilangan musiqiy ta’lim vazifalari va muammolarni hal etish bosqichida har bir talabaning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida mazkur jarayonni shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

- Xalq qo’shig’i (mavzu) bo’yicha qo’yilgan nazariy va amaliy ko’rinishdagi musiqiy muammolarni aniqlash bosqichi;

- Xalq qo’shig’ining nazariy va amaliy ko’rinishdagi musiqiy muammolarni anglash bosqichi;

- Xalq qo’shig’idagi musiqiy muammolar bo’yicha fikrlash bosqichi.

Birinchi, mavzu bo’yicha qo’yilgan nazariy va amaliy ko’rinishdagi musiqiy muammolarni aniqlash bosqichida talabalarda xalq qo’shiqlari vositasida musiqiy-estetik ta’lim-tarbiya sohasiga tegishli bo’lgan umumiy tushunchalar aniqlab olinadi va talabaning diqqati xalq qo’shig’ida musiqaning qaysi elementlari, materiallari o’z ifodasi topganligi yuzasidan qo’yilgan muammoga jalb qilinadi. Mavzu bo’yicha qo’yilgan musiqiy muammolarni aniqlash bosqichini tashkil etish uchun quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

Xalq qo'shiqlari mavzusi bo'yicha qo'yilgan nazariy va amaliy ko'rinishdagi musiqiy muammolar haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?

Xalq qo'shiqlari mavzusi bo'yicha qo'yilgan nazariy va amaliy ko'rinishdagi musiqiy muammolar xususida nimalarni bilishni xoxlaysiz?

Xalq qo'shiqlari misolida qo'yilgan musiqa ta'lim-tarbiyasining nazariy va amaliy ko'rinishidagi muammo nima uchun muhim?

Ikkinchi, nazariy va amaliy ko'rinishdagi musiqiy muammolarni anglash bosqichida asosiy maqsad xalq qo'shiqlari vositasidagi musiqiy ta'lim-tarbiya jarayonining dinamikasini ta'minlash, yangi musiqiy o'quv ma'lumotlar, ifodali ijroga tegishli materiallarni o'zlashtirishdan iborat. Bunda xalq qo'shiqlari vositasida musiqa ta'lim-tarbiya berishning aynan qaysi jihatlari, jarayonlari bo'yicha qo'yilgan muammo mohiyatini anglab yetish va ularni hal etish texnologiyalari nazarda tutiladi. Ushbu bosqichda xalq qo'shiqlari vositasida musiqiy ta'lim-tarbiya berishning turli interfaol usullaridan foydalaninsh yaxshi samara beradi. Jumladan, nazariy savollar orqali bilim saviyasini oshirish, cholg'u ijrochiligi, qo'shiq kuylash mahoratini aniqlash uchun mikro guruhlar tuzish, munozara tashkil etish mumkin. Shuningdek, quyidagi tartibda savollar ham qo'yish mumkin:

Sizda musiqa nazariyasi, cholg'u ijrochiligi, xalq qo'shiqlarini kuylash xususida yangi ma'lumotlar bormi?

Musiqa nazariyasi, cholg'u ijrochiligi, xalq qo'shiqlarini kuylash masalasi bo'yicha sizning fikringiz qanday?

Musiqa nazariyasi, cholg'u ijrochiligi, xalq qo'shiqlarini kuylash masalasi bo'yicha qo'yilgan muammoning qaysi jihati sizda eng katta taassurot qoldirdi?

Xalq qo'shiqlari bo'yicha qo'yilgan musiqiy muammoning ahamiyati nimada deb o'ylaysiz?

Qo'yilgan muammo qanday natija beradi deb o'ylaysiz?

Uchinchi, musiqiy muammolar bo'yicha fikrlash bosqichida xalq qo'shiqlari vositasida qo'yilgan muammoning yechimi chiqarilib, fikr-mulohazalar bildiriladi, amaliy ijroda ko'rsatilib beriladi. Talabalarning xalq qo'shiqlarini kuylashga, ular misolida musiqiy-nazariy tushunchalarini bayon etishga hamda cholg'u asbobida chalib berishga jalb etish uchun ularga quyidagi savollar bilan murojaat qilinishi mumkin:

Xalq qo'shiqlari yuzasidan qo'yilgan musiqiy muammolar haqida nimalarni tasavvur qilayapsiz?

Musiqiy muammolar sizda qanday yangi fikrlar hosil qildi?

Fikringizni nazariy va amaliy jihatdan asoslay olasizmi?

Ushbu savollarga javob berish mobayinida talabalar qo'shiq kuylash mahoratini, musiqa nazariyasi va amaliy ijro xususida esa yangi tushunchalarni bayon etishga, cholg'u asbobida mohirona chalish usullarini namoyish qilishga harakat qilishlari zarur. Hosil bo'layotgan nazariy bilimning haqqoniyligi, amaliy ijroning rang-barang bo'lishiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Xalq qo'shiqlari vositasida musiqiy ta'lim-tarbiya berish jarayoniga o'ziga xos psixologik jihatdan ijobiy yondashuv talabalarni musiqa sohasida mustaqil fikrlashga, o'z fikrini erkin bayon etishga, cholg'u asbobida mohirlik bilan chalish va qo'shiqlarni ifodali kuylab berishga undaydi. Shu bilan bir qatorda mavzu bo'yicha qo'yiladigan musiqiy ta'lim-tarbiya muammolarini ijodiy hal etish uchun sharoit yaratadi. Bunda quyidagi usullardan foydalaninsh maqsadga muvofiq.

Mikroguruhlarda ishlash. Har bir mikroguruhda a'lochi, o'rta o'zlashtiruvchi va pastroq o'zlashtiruvchi talabalar teng taqsimlanishi kerak. Talabalar besh-oltita kishidan iborat kichik guruhlariga ajratiladi va ular doimiy faoliyat ko'rsatadilar. Mavzu mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari bo'yicha qo'yilgan musiqiy-nazariy va amaliy muammolarni erkin bahs-munozara yuritib muhokama qiladilar va fikrlarini amaliy ijro misollarida isbotlab beradilar. Masalan, mikroguruhda xalq qo'shiqlari vositasidagi muammoli musiqiy materiallarni har tomonlama tahlil qiladilar va guruhning har bir a'zosi yoki o'zlari belgilagan biror talaba fikrlarini bayon etadi hamda amaliy ijro misolida asoslab beradi.

Mashg'ulot mavzusidan kelib chiqib taqdimot jarayonini erkin munozara yuritish, qo'shiqni kuylab, mazmun-mohiyatini tushuntirib berish shaklida tashkil qilish mumkin. Masalan, “Xalq qo'shiqlarining o'ziga xos xususiyatli” nomli mashg'ulot mavzusi bo'yicha muammoli savolarga javob topishda “Aqliy hujum” metodi muhim ahamiyat kasb etadi. “Aqliy hujum”da xalq qo'shiqlari haqida qisqa, lo'nda va ko'proq fikrlar to'plash, chegaralangan vaqt davomida tezkorlik bilan mushohida yuritish, qo'shiqni musiqiy-badiiy jihatdan tahlil qilinishi talab etiladi. Ehtiroz tarzda bildirilgan fikrlar ham qabul qilinadi, qo'shiq mazmun-mohiyatiga tegishli ijobiy mulohazalar inobatga olinadi.

“Ijodiy faoliyat” – qo'shiqni cholg'u asbobi jo'rliigida ifodali va yoqimli kuylash, uning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatini asoslab berish holatlari nazarda tutiladi..

“Muammoli vaziyatlar”- xalq qo‘shig‘ining mazmun-mohiyati, tarixiy taraqqiyoti, ijro uslublari haqida muammoli vaziyatlar hosil qilinib, mikrogruphlarda va yakka tartibda muhokama qilish nazarda tutiladi..

“T sxemasi” – bunda xalq qo‘shiqlarining ma’lum bir xususiyatlari berilib ularning ijobiy, salbiy, maqbul, nomaqbul tomonlari ajratiladi. Masalan, xalq qo‘shiqlarining o‘ziga xos ijobiy tomonlari va kamchiliklari nimada?

| + (ijobiy tomoni) | - (kamchiliklari) |
|-------------------|-------------------|
|                   |                   |

Mashg‘ulotlarni bu usulda tashkil etishda o‘qituvchi nimalarga erishadi?, degan savol tug‘ilishi mumkin. Bunda birinchidan, o‘qituvchi: talabada xalq qo‘shiqlari bo‘yicha o‘quv-biluv faoliyatini faollashtirishga erishadi; xalq qo‘shiqlari haqida esa faol munozarani vujudga keltirad; o‘quv faoliyatining ijobiy motivini hosil qiladi; talabalarga xalq qo‘shiqlari haqidagi turlicha fikrlarni tinglash imkonini beradi; tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini hosil qiladi; xalq qo‘shiqlarini ijro etishda o‘z-o‘zini namoyish etish imkonini beradi; xalq qo‘shiqlari bo‘yicha turli ijtimoiy munozaralarga kirish malakasini hosil qiladi.

**Xulosa.** Xalq qo‘shiqlarining ta’lim-tarbiyadagi o‘rni, ahamiyati, ularni ijro etish usullari haqida mustaqil fikr-mulohazalarni hosil qilish uchun birinchi navbatda o‘quv-uslubiy shart-sharoitlar yaratilishi maqsadga muvofiqdir. Vaholanki xalq qo‘shiqlari va umuman musiqa san’ati haqida mustaqil fikrni hosil qilishning aniq ishlab chiqilgan formula(shartli ifoda)si yo‘q.

Shunga ko‘ra:

1. Xalq qo‘shiqlari bo‘yicha mustaqil fikrlash ko‘nikmasini hosil qilish uchun vaqt va imkoniyat berish zarur. Demak, talaba xalq qo‘shiqlari yuzasidan mulohaza qilishi uchun sharoit yaratilishi zarur.

2. Talabalarni musiqiy ta’lim jarayonidagi faolligini ta’minlash kerak.

3. Xalq qo‘shiqlari haqida har bir shaxsning o‘ziga xos fikr-mulohazasi mavjudligiga talabalarni ishontirish kerak.

4. Talabalarni xalq qo‘shiqlari haqidagi ijodiy mustaqil fikrni qadrlashga o‘rgatish darkor.

Bunda talabalar albatta:

- xalq qo‘shiqlari sohasida bilim olishda o‘z-o‘ziga va o‘qituvchiga ishonishi;


- musiqa jarayonining o‘quv-biluv faoliyatida faol ishtirok etishi;

- xalq qo‘shiqlari haqida bildirilgan turli fikr-mulohazalarni diqqat, e’tibor va hurmat bilan eshitishi;

- xalq qo‘shiqlari haqida yangi fikr-mulohazalarni bildirishga va o‘zlashtirib borishga ruhan tayyor turishlari zarurdir.

### Adabiyotlar:

1. Alaviya M. O‘zbek xalq qo‘shiqlari. -T.: O‘zdamnashr, 1959. -114 b.
2. Alaviya M. O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari. – T.: Fan, 1974. 77 b.
3. Dulgarova I. O‘zbek xalq qo‘shiqlari. -T.: O‘zadabiy nashr, 1960.- 82 b.
4. Jumanazarov U. Uzbekskiy narodniye istoricheskoye pesni.-T.: FAN, 1989. -125 s.
5. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi. T.: FAN.2010. 278b
6. Rajabov D., Rajabov T. Xalq qo‘shig‘i va musiqa ijrochiligi.–T.: Navro‘z nashriyoti. 2018.–127 b.
7. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. - T.: Musiqi nashriyoti. 2010.- 340-b
8. Миршаев, У. М., & Миршаева, Д. А. (2020). Роль народных песен в нравственном воспитании учащихся. Проблемы педагогики, (3 (48)), 6-7.
9. Ortikov O.R., Murodova M.M. Xalq qo‘shiqlari vositasida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish // Экономика и социум. 2023. №3-1 (106). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/xalq-qo-shiqlari-vositasida-o-quvchilarning-ma-naviy-axloqiy-fazilatlarini-shakllantirish> (дата обращения: 24.05.2025).
10. Gulnora Sa’dullayevna Qaxarova Xalq qo‘shiqlari vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish texnologiyasi // Academic research in educational sciences. 2023. №KSPI Conference 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/xalq-qo-shiqlari-vositasida-boshlang-ich-sinf-o-quvchilarida-ijodiy-qobiliyatlarni-shakllantirish-texnologiyasi> (дата обращения: 24.05.2025).



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi  
“PEDAGOGIK MAHORAT”  
ilmiy-nazariy va metodik jurnali  
barcha ta’lim muassasalarini  
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi, shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy  
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

**Tahririyat rekvizitlari:**

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000300100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

**BuxDU** 400110860064017094100350005

***Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!***

|                                                                                                                                                                                                                    |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p><b>PEDAGOGIK<br/>MAHORAT</b></p> <p><b>Ilmiy-nazariy va metodik<br/>jurnal</b></p> <p><b>2025-yil 5-son (116)</b></p> <p><b>2001-yil iyul oyidan<br/>chiqa boshlagan.</b></p> <p><b>OBUNA INDEKSI: 3070</b></p> | <p><b>Buxoro davlat universiteti nashri</b></p> <p>Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p><b>Nashr uchun mas’ul:</b><br/><b>Nigora SAYFULLAYEVA</b><br/><b>Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA</b><br/><b>Musahhih: Sarvinoz RAXIMOVA</b></p> | <p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 28.05.2025<br/>Bosmaxonaga topshirish vaqti 29.05.2025</p> <p>Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8<br/>Tezkor bosma usulda bosildi.<br/>Shartli bosma tabog‘i – 20,6<br/>Adadi – 100 nusxa<br/>Buyurtma № 21<br/>Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“BUKHARAHAMD PRINT”<br/>MCHJ bosmaxonasida chop etildi.<br/>Bosmaxona manzili: Buxoro shahri, J.Ikromiy MFY, Hofiz tanish Buxoriy ko‘chasi, 190 B-uy.</p> |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|